



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срожиддинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOIIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010–2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quدرات o'g'li	



2010–2024-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA TO‘QIMACHILIKNI INVESTITSİYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI



Ashurov Shuhratbek Qudrat o'q'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası assistenti
ORCID: 0009-0003-4363-9795

Annotatsiya. Maqolada to'qimachilik sanoatining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini hamda O'zbekistonda ushbu tarmoqni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor tahlil qilingan. Jumladan, to'qimachilik sohasiga 2010–2024-yillarda kiritilgan investitsiyalar hajmi va ularning o'sish dinamikasi o'rganilgan. Ushbu ma'lumotlar asosida to'qimachilik tarmog'ini investitsiyalash hajmi bilan mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan jami investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida ekonometrik model ishlab chiqilgan. Shuningdek, modelning ayrim kamchiliklari aniqlanib, uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit soʻzlar: investitsiya, toʻqimachilik sanoati, ekonometrik model, yalpi ichki mahsulot, oʻsish surʼati.

Abstract. The article analyzes the role of the textile industry in the national economy and the increasing attention given to the development of this sector in Uzbekistan. In particular, the study examines the volume of investments directed to the textile industry during 2010–2024 and analyzes their growth dynamics. Based on these data, an econometric model was developed to identify the relationship between investments in the textile sector and the total volume of investments attracted to the national economy. In addition, several limitations of the model were identified, and scientific recommendations for its improvement were proposed.

Key words: investment, textile industry, econometric model, gross domestic product, growth rate.

Аннотация. В статье проанализирована роль текстильной промышленности в национальной экономике, а также внимание, уделяемое развитию данной отрасли в Узбекистане. В частности, исследованы объемы инвестиций, направленных в текстильную отрасль в 2010–2024 гг. и динамика их роста. На основе полученных данных разработана эконометрическая модель, позволяющая определить взаимосвязь между объемом инвестиций в текстильную промышленность и общим объемом инвестиций, привлеченных в экономику страны. Также выявлены отдельные недостатки модели и предложены научные рекомендации по ее совершенствованию.

Ключевые слова: инвестиции, текстильная промышленность, эконометрическая модель, валовой внутренний продукт, темп роста.

KIRISH

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi qayta tahrir qilindi. Mazkur o'zgarishlarning asosiy sababi sifatida mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YIM) hajmini 2030-yilga qadar 160 mlrd AQSh dollariga yetkazish vazifasining jadallashtirilgani va ushbu ko'rsatkichga 2026-yilda erishish imkoniyatining mavjudligi qayd etilgan.

Ushbu strategik yangilanishlar investitsiya siyosatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, 2025-yil 3-fevraldagi PF-22-sonli¹ "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi Prezident farmonida 2026-yilda 50,4 mlrd AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish belgilangan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 14.02.2025 yildagi PF-22-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-7388132>



Shuningdek, ushbu investitsiyalar tarkibida tekstil va to'qimachilik sanoatiga 2,4 mlrd AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni yo'naltirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tang Xiaoyangning Osiyo investitsiyalarining Afrika to'qimachilik sanoatiga² ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotida Tanzaniya misolida to'qimachilik sanoatining rivojlanish jarayoni tahlil qilingan. Muallifning ta'kidlashicha, Tanzaniya hukumati 1960–1990-yillarda to'qimachilik tarmog'iga investitsiyalarni rag'batlantirish siyosatini amalga oshirgan. Natijada mamlakatda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1995-yilda 31 mln m² ni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilda 150 mln m² ga yetgani qayd etilgan³. Bu esa mazkur sohada investitsiya siyosatining muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Shuningdek, Hindiston, Vetnam, Pokiston hamda Misr kabi davlatlarda savdo va investitsiya siyosatining to'qimachilik sanoati rivojiga ta'siri A. Abdullah, J. Alkazraji, A. Bekmuratov, I. Muhsin hamda F.A.K. Khazal⁴ kabi olimlarning ilmiy maqolalarida atroflicha tahlil qilingan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Madraximova G.A.ning "To'qimachilik sanoati tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish"⁵ mavzusidagi dissertatsiyasi alohida e'tiborga loyiq. Mazkur tadqiqotda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bilan investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ekonometrik model yordamida tahlil qilingan hamda tarmoq rivojlanishining iqtisodiy mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tadqiqot maqsadiga erishish uchun statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va o'zaro bog'liqlik darajasini aniqlash maqsadida o'rtacha kvadratik chetlanish, korrelyatsiya, dispersiya hamda chiziqli tenglama (regressiya) metodlari qo'llanildi. Ushbu usullar yordamida to'qimachilik sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi va ularning iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligi statistik jihatdan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda nominal yalpi ichki mahsulot (keyingi o'rinlarda — YIM) hajmi 2017-yilda 370 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1,85 kvadrln so'mga yetdi. Natijada 2017–2025-yillar davomida nominal YIM hajmi qariyb 5 barobarga oshgani kuzatiladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o'sish jarayonlari kuzatilayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (keyingi o'rinlarda — investitsiyalar) ham sezilarli darajada oshib bormoqda. Mazkur ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi va investitsiyalar hajmining o'sish tendensiyalari quyidagi rasmda aks ettirilgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi⁶

2 The impact of ASIAN investmen of AFRICA's textile industry, Tang Xiaoyang, 2014 Carnegie–Tsinghua Center for Global Policy, 26.

3 An Enterprise Map of Tanzania, John Sutton and Donath Olomi, IGC 2012, 122.

4 Trade policies and the role of emerging markets in global textile commerce, A. ABDULLAH, S.M.J. ALKAZRAJI, A. BEKMURATOV, A.I. MUHSIN, F.A.K. KHAZAL, № 5 (419) ТЕХНОЛОГИЯ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ 2025, 60.

5 <https://unilibary.uz/dissertation/841967>

6 Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlariga tayanib shuni ta'kidlash mumkinki, 2017-yilda investitsiyalar hajmi 72 trln 155 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 507 trln 490 mlrd so'mga yetgan. Boshqacha aytganda, 2017-yilga nisbatan investitsiyalar hajmi qariyb 7 barobardan ortiq oshganini kuzatish mumkin.


Ma'lumki, investitsiyalar turli iqtisodiy tarmoqlarga yo'naltiriladi. Ushbu tarmoqlardan biri sanoat bo'lib, mazkur tadqiqotda sanoat tarmog'ining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblangan to'qimachilik sektori alohida o'rganildi.

2-rasmda to'qimachilik sohasiga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, investitsiyalar tarkibida to'qimachilik tarmog'ining ulushi ham sezilarli ahamiyatga ega. Tadqiqot maqsadida 2010–2025-yillar oralig'i ikki davrga ajratib tahlil qilindi. Jumladan, 2010–2016-yillarda ushbu sohaga kiritilgan investitsiyalar hajmi 4,4 barobarga, 2017–2025-yillarda esa 10,8 barobarga oshgani kuzatiladi.

Mazkur o'sish quyidagi omillar bilan izohlanadi:

1. Ochiq va pragmatik tashqi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi;
2. Davlat investitsiya siyosati doirasida taqdim etilayotgan imtiyoz va rag'batlantirish mexanizmlari;
3. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan institutsional choralar;
4. Xalqaro maydonda O'zbekistonga bo'lgan iqtisodiy ishonch darajasining oshishi;
5. Xususiy mulkni himoya qilish bo'yicha davlat kafolatlarining mustahkamlanishi.

2020–2021-yillarda investitsiyalar hajmida kuzatilgan qisqa muddatli pasayish asosan COVID–19 pandemiyasi bilan bog'liq global iqtisodiy cheklovlar ta'siri bilan izohlanadi. Pandemiya davrida ayrim ishlab chiqarish korxonalari faoliyatida vaqtinchalik uzilishlar yuzaga kelgan bo'lsa-da, keyingi yillarda iqtisodiy faollikning tiklanishi natijasida investitsiya jarayonlari yana barqaror o'sish bosqichiga o'tgan (2-rasm).



2-rasm. To'qimachilik sohasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi

Ekonometrika iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va ularni miqdoriy jihatdan baholash imkonini beruvchi muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Mazkur yondashuv asosida turli iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun ekonometrik modellar quriladi.

Ushbu tadqiqotda to'qimachilik sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmining o'zgarishi bilan umumiy investitsiyalar hajmi o'rtasidagi bog'liqlik ekonometrik tahlil asosida o'rganildi. Xususan, to'qimachilik sohasini investitsiyalash hajmining 1 foizga oshishi umumiy investitsiyalar hajmining qanchaga foizga o'sishiga ta'sir ko'rsatishini aniqlash maqsadida ekonometrik modeldan foydalanildi.

Mazkur tahlilni amalga oshirish uchun quyidagi statistik ma'lumotlardan foydalanildi (1-jadval):

1-jadval

Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
To'qimachilik sanoatida investitsiyalar o'sish sur'ati	76,4	8,1	17,9	18,3	-20,5	110,1	74,0	81,0	160,8	-11,9	7,1	43,1	54,7	9,7
O'zbekistonda investitsiyalar hajmi o'sish sur'ati	18,4	25,4	24,7	23,5	19,0	14,3	40,8	72,2	57,7	7,3	14,0	11,1	33,7	42,5



Mazkur ma'lumotlar asosida ekonometrik model qurilganda quyidagi natijalarga erishildi:

1. Korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,52 ni tashkil etdi. Bu esa to'qimachilik sohasida investitsiyalar o'sishi bilan O'zbekistonda investitsiyalar hajmining o'sishi o'rtasida ijobiy va o'rtacha darajadagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

2. Determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) 0,27 ga teng. Mazkur natija to'qimachilik sohasida investitsiyalar o'sishi O'zbekistonda investitsiyalar umumiy hajmi o'sishining taxminan 27 foizini izohlashini bildiradi.

3. Avtokorrelyatsiya kuzatilmadi, ya'ni model qoldiqlarida ketma-ket bog'liqlik mavjud emasligi aniqlandi.

Tuzilgan ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y = 20,4 + 0,19X$$

Mazkur modelga ko'ra, boshqa omillar o'zgarmagan holda to'qimachilik sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmining 1 foizga oshishi O'zbekistonda investitsiyalar umumiy hajmining o'rtacha 0,19 foizga oshishiga olib kelishini kuzatish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada to'qimachilik sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi bilan mamlakatda umumiy investitsiyalar o'sishi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshqa omillar o'zgarmagan sharoitda to'qimachilik tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar hajmining ortishi mamlakatda investitsiya faolligining oshishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar jarayonida modelni yanada takomillashtirish uchun e'tiborga olinishi mumkin bo'lgan ayrim jihatlar ham aniqlandi:

1. To'qimachilik sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy investitsiyalar hajmining o'sishini qisman izohlaydi, biroq ushbu jarayonga boshqa iqtisodiy omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi;

2. Ayrim yillarda yuzaga kelgan iqtisodiy tebranishlar va tashqi shoklar model parametrlarini baholashda qo'shimcha aniqlashtirishlarni talab qiladi;

3. Modelda foydalanilgan omillar sonini kengaytirish tahlil natijalarining aniqligini yanada oshirishi mumkin.

Modelni takomillashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Tahlil uchun foydalaniladigan ma'lumotlar bazasini kengaytirish;

2. 2020-yilda kuzatilgan iqtisodiy shoklarning investitsiya jarayonlariga ta'sirini chuqurroq qayta baholash;

3. Valyuta bozorini liberallashtirish jarayonlarining investitsiya faolligiga ta'sirini qo'shimcha omil sifatida tahlil qilish.

Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan tadqiqotlar ekonometrik modelning aniqligi va amaliy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi 2026-yil 16-fevraldagi PF–22-son Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7388132>
2. Tang Xiaoyang. The Impact of Asian Investment on Africa's Textile Industry. – Beijing: Carnegie–Tsinghua Center for Global Policy, 2014. – 26 p.
3. Sutton J., Olomi D. An Enterprise Map of Tanzania. – London: International Growth Centre (IGC), 2012. – 122 p.
4. Abdullah A., Alkazraji S.M.J., Bekmuratov A., Muhsin A.I., Khazal F.A.K. Trade policies and the role of emerging markets in global textile commerce // Tekhnologiya tekstilnoy promyshlennosti. – 2025. – № 5 (419). – P. 60.
5. Madraximova G.R. To'qimachilik sanoati tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi. – <https://lex.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti. – <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>